Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · "Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnol... DOI: 10.5281/zenodo.24318359

materiallar to'plami

MAMLAKATIMIZDA YOSHLAR TURIZMINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Allayor Norboyev, Sharof Rashidov nomidagi SamDU, mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Yoshlarning turizm bilan band bo'lishi ayni paytda jinoyatchilik, giyohvandlik yoki boshqa zararli odatlar bilan band bo'lishining oldini oladi. Yoshlar orasida hayot tarzining buzilishi yoshlarda pessimizmning kuchayishiga hamda turli zararli oqim va guruhlarga qo'shilib qolishiga sharoit yaratishini inobatga olsak, ushbu masala bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *Yoshlar turizmi, Turizm industriyasi, Turizm to'g'risida qonun, turoperatorlik va turagentlik tashkilotlari, transport korxonalari.*

Аннотация: *Занятость молодых людей туризмом предохраняет их от преступной деятельности, наркомании и других вредных привычек. Если принять во внимание, что ухудшение образа жизни молодежи создает условия для роста пессимизма и присоединения к различным вредным течениям и группам, то этот вопрос является одним из наиболее актуальных вопросов современности.*

Ключевые слова: *Молодежный туризм, Индустрия туризма, Закон о туризме, туроператорские и турагентские организации.*

Abstract: *Young people's engagement in tourism prevents them from engaging in crime, drug addiction or other harmful habits. If we take into account that the deterioration of the lifestyle among young people creates conditions for increasing pessimism and joining various harmful currents and groups, this issue is one of the most urgent issues of today.*

Key words: *Youth Tourism, Tourism Industry, Law on Tourism, tour operator and travel agency organizations, transport companies.*

Yoshlar turizmi – bu sayohatning turli-tumanligidir, bunda yoshlar bir maqsadda va dunyoni bilish istagi bilan o'zlarining o'rtoqlari bilan dam olishadi. Sayohat buyuk istiqbolni, turli mamlakatlar madaniyati, tarixi va ko'p yangi narsalarni o'rganish imkonini beradi. Yoshlar uchun tez-tez ma'lum chegirma va bonuslar qilishadi va ular bundan katta mamnuniyat bilan foydalanishadi. Xalqaro talaba kartasi mavjud bo'lsa, bu uy-joyga pul tejashga yordam beradi, chunki talaba yotokxonada tunashi mumkin. Havo va temir yo'l transportiga talaba va yoshlar uchun berilgan bonus sayohatchilar uchun ham jozibador, shuningdek, ularning ota-onalari uchun ham, shuningdek, transportga to'lov – bu kata miqdordagi safar xarajatlariga olib keladi. Yoshlar har doim qiyinchilikni engish uchun, chidamlilikni o'rganish uchun va tashqi dunyodan zavqlanish uchun va o'zlarining maqsadlariga erishish uchun bir necha muammolarni bartaraf qilishlari kerak. Axir, yoshlar uchun sayohat - bu hayot tarzidir. Har bir kishi uchun o'zining qiziqarli dam olishi bor. Kurort, dengiz, kuni bo'yi o'yin-kulgi va qiziqarli yangi tanishuvlar – deyarli har bir yosh insonning tabiiy hayot ritmidir.

Published: 10.11.2023

Cite this article: Allayor Norboyev (2023). Mamlakatimizda yoshlar turizmini tashkil etish va rivojlantirishning nazariy asoslari. Emro Science and Education, 1(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24318359

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Turizm industriyasi – bu mehmonxonalar va joylashtirish vositalari, transport vositalari, umumiy ovqatlanish obektlari, ko‘ngilochar joylar va vositalar, bilim orttirish, davolash, sog‘lomlashtirish, sportga doir, diniy-marosimchilik, ishbilarmonlikka va boshqa maqsadlarga molik vositalar, turizm operatorlari va turizm agentligini amalga oshiruvchi, shuningdek, turistik-ekskursiya va gid-tarjimonlik xizmatlarini taklif qiluvchi tashkilotlar majmuidir.

O‘zbekiston Respublikasining «Turizm to‘g‘risida»gi Qonunda turistik industriya tushunchasi quyidagi tarzda ta’riflanadi: Turistik industriya-turistik faoliyatning turistlarga xizmat ko‘rsatishini taminlovchi turli subektlar (mehmonxonalar, turistik komplekslar, kempinglar, motellar, pansionatlar, umumiy ovqatlanish, transport korxonalari, madaniyat, ekport muassasalari va boshqalar) majmui.

Bundan kelib chiqib turizm industriyasiga turoperatorlik va turagentlik tashkilotlari, turistlarni tashuvchi, mehmonxonalar va joylashtirish tizimining boshqa korxonalari, umumiy ovqatlanish, attraksionlar va ko‘ngilochar joylari, shuningdek, ular qatoriga bank sohasidagi muassasalar, sug‘urta xizmati va boshqalar kiradi. Turizmning maxsus turlarida davolash muassasalari, o‘qitish tizimi muassasalari hamda aniq turistik mahsulotning maqsadlariga muvofiq keladigan sport va boshqa muassasalar ishtirok etishlari mumkin. Bu tashkilotlarning barchasi bir-birlarini uyg‘un ravishda to‘ldirishi va istemolchi uchun zarur bo‘lgan hamda assortiment bo‘yicha etarli darajadagi barcha xizmatlarni ko‘rsatadi.

Turizm tashkilotchilari yani turoperatorlik va turagentlik tashkilotlari – turistik mahsulotlarini yaratish va realizatsiya qilish bilan shug‘ullanishadi. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida mamlakatning yoki turistik markazning ijtimoiy tuzilishidan qatiy nazar turizm sohasida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi birqancha turli xildagi korxonalar, chunonchi: turizmni tashkillashtiruvchi turoperator va turistik agentliklar mavjud.

Turizm tashkilotchilariga turizm sohasidagi ikki xil korxona mansubdir: turoperatorlar va turistik agentliklar. Bu korxonalar turizm xizmatining o‘zi bilan bevosita shug‘ullanmaydilar, balki faqat istemolchi (turist) bilan bevosita xizmat ko‘rsatuvchining o‘rtasida vositachilik vazifasini bajaradilar.

Turoperatorlar turistik mahsulotni shakllantirishni (tuzish yoki loyihalash), uni bozor tomon harakatini, shuningdek realizatsiya qilinishini amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir. Shuningdek, turoperator turistik mahsulotni istemolchi (turist) oldida bajarilishi uchun javob beradi va amalda turistik mahsulotni nazorat qilish va operativ kuzatib borishni amalga oshiradi. [1]

[1] “Мамлакатимизни модернизасия қилиш йулини изчил давом эттириш – тараққиётимизнинг муҳим омилидир” Президент И. А. Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конститусияси қабул қилинганининг 21 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маьрузаси

Turistik agentliklar (turagent) – bu istemolchiga, yani turistga yoki mijozlarga ayrim turistik xizmatlar va turlarni chakana sotish funksiyasini amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir.[2]

• o‘yin-kulgu va bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish bo‘yicha korxonalar – bularga tematik parklar, kino konsert zallari, o‘yin avtomatlari joylashgan zallar kiradi va bu erlarda turistlar bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishlari mumkin.

• Ovqatlantirish korxonalari – restoran, kafe, bar, choyxona va shu kabilarni kiritishimiz mumkin. Bu korxonalar turizmda asosiy xizmatlardan biri bo‘lib bu erda turistlarning ovqatlanishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishimiz mumkin.

• Ta’kidlash joyizki, ovqatlanish korxonalari turistlarga yana turli xil qo‘shimcha xizmatlarni ko‘rsatadi, jumladan: turli bayramlarni, innovatsion ovqatlanish joylari, nomerda mini barlarni tashkil etish va boshqalar. SHuningdek, turistlarga nafaqat tashrif buyurgan joylarida balki, avtobuslarda, temir yo‘l transportlarida, havo va suv transportlarida ham ovqatlanish xizmatlari ko‘rsatiladi.

• transport korxonalari – bu korxonalar ham tur mahsulot tarkibidagi asosiy xizmatlardan biri bo‘lgan tashish xizmatlarini ko‘rsatishadi. Turistik mahsulotlar tarkibida turistlarni tashish xizmati etakchi o‘rinlardan birini egallashi shu bilan ifodalanadiki, barcha turistik yonalishlarda (piyodalardan tashqari) sayohatchilarni dam olish yoki ekskursiya tashkil etish va uyga qaytishi uchun transport bo‘lishi tabiiy hol bo‘lib qolmoqda.

• Savdo korxonalari – turistik asbob-anjomlar va suvenirlarni sotishga mo‘ljallangan magazinlarni kiritishimiz mumkin. Bunday magazinlarda turistlar turizmning turiga qarab, masalan alpinizm bilan shug‘ullanuvchilar o‘ziga zarur bo‘lgan anjomlarni sotib olishlari mumkin.

• Ishlab chiqaruvchi korxonalar – bu korxonalar bevosita turistik suvenirlar, mehmonxonalar uchun mebellar, turistik asbob-anjomlarni ishlab chiqarish bilan shug‘ullanishadi.

• Joylashtirish xizmatlarini taqdim qiluvchi korxonalar – Turizm industriyasining yana bir muhim tashkil etuvchisi bu turistlarni joylashtirish bo‘lib hisoblanadi.

• Joylashtirish – turizm industriyasining eng muhim elementlaridan biri hisoblanib usiz turizmni tasavvur etib ham bo‘lmaydi.

Bu turistlarni qabul qilib olish va o‘z turistik resurslarini ishlatishdan qatiy nazar va katta daromad olishga tashna bo‘lgan har qanday turistik mintaqa iqtisodiyotining eng muhim talabidir. Mehmonxona industriyasi insoniyat tarixidagi har qanday ijtimoiy toifaga xos bo‘lgan mehmonni hurmat qilish, uni qabul qilib olish va xizmat ko‘rsatish tantanalari kabi eng qadimgi an’analaridan kelib chiqadi. Shuni ta’kidlash kerakki, mutlaqo tranzit turistlar va ekskursion xizmat ko‘rsatish hisobiga yashaydigan

[2] Камилова Ф.К., Таишева И.М., Сайфутдинов Ш.С. “Туризм индустрияси”. Уқув қулланма. Тошкент. ТДИУ89-б.

turistik markaz va joylar mavjud. Lekin bu holda yaxshi foyda olish uchun turistik mahsulot tovarni tashkil qiluvchi xususiyatga ega bo‘lish kerak. [3]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Turizm to‘g‘risida»gi Qonuni Toshkent 2022.
2. “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yulini ish davom etadigan harakat – taraqqiyotimizning muhim omilidir” Uzbekistan Republikasi Konstitutisiyasi qabul qilinganining 21 yilliga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi maruzasi.
3. Kamilova F.K., Taisheva I.M., Sayfutdinov Sh.S. "Turizm sanoati". O‘quv qo‘llanma. Toshkent. TDIU89-b.
4. Alieva M.T. “Turistik mamlakatlar iqtisodioti” darslik, Toshkent, TDIU, 45-b.

[3] Алиева М.Т. “Туристик мамлакатлар иқтисодиёти” дарслик, Тошкент, ТДИУ,45-б.